



The Importance Of Land Development And Reuse And Future Task

Turayev Ruhiddin Amirqulovich

Director General of the "Uzdavyerloyiha" DILI
Doctor of Technical Sciences, Professor,

Tokhirov Kozim Najim oglu

Head of the "Doctoral Studies" Department of the
"Uzdavyerloyiha" DILI

Tadzhiyeva Madina Zoirovna

2nd-year basic doctoral student of the "Doctoral Studies"
Department of the "Uzdavyerloyiha" DILI

ABSTRACT

This article analyzes the current state and priority areas of land development and reuse in agriculture in Uzbekistan. In the study, the melioration state of irrigated lands, the level of salinity, and degradation indicators were assessed based on statistical and regulatory sources. The results showed that a significant part of the land is saline to varying degrees, which is a limiting factor in agricultural efficiency. It is justified that the priority strategy should be the restoration of the quality of existing lands and their return to economic circulation, rather than the expansion of new lands. The article emphasizes the need for institutional strength, digital monitoring, and the introduction of resource-saving technologies in sustainable land resource management.

Keywords:

Land resources, land degradation, salinization, melioration status, reuse, sustainable land management.

YER MAYDONLARINI O'ZLASHTIRISH VA QAYTA FOYDALANISHGA KIRITISHNING AHAMIYATI HAMDA ISTIQBOLDA BELGILANGAN VAZIFALAR

Turayev Ruhiddin Amirqulovich - "O'zdavyerloyiha" DILI Bosh direktori
t.f.d., professor,

Toxirov Kozim Najim o'g'li - "O'zdavyerloyiha" DILI "Doktorantura" bo'limi boshlig'i,

Tadzhiyeva Madina Zoirovna - "O'zdavyerloyiha" DILI "Doktorantura" bo'limi
2-bosqich tayanch doktoranti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda yer maydonlarini o'zlashtirish va qishloq xo'jaligida qayta foydalanishga kiritish jarayonlarining hozirgi holati hamda ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati, sho'rlanish darajasi va degradatsiya ko'rsatkichlari statistik hamda normativ-huquqiy manbalar asosida baholandi. Natijalar yerlarning sezilarli qismi turli darajada sho'rlanganini va bu agrar samaradorlikni cheklovchi omil ekanini ko'rsatdi. Asoslab berilishicha, yangi yerlarni kengaytirishdan ko'ra, mavjud yerlarning sifatini tiklash va ularni iqtisodiy aylanishga qaytarish ustuvor strategiya bo'lishi lozim. Maqolada yer resurslarini barqaror boshqarishda institutsional mustahkamlik, raqamli monitoring va resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Yer resurslari, yer degradatsiyasi, sho'rlanish, meliorativ holat, qayta foydalanish, barqaror yer boshqaruvi.

Kirish. Zamonaviy global rivojlanish, iqlim o'zgarishi va resurslar tanqisligi kuchaygan sharoitda yer resurslari masalasi iqtisodiy o'sish, oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik barqarorlikning hal qiluvchi omillaridan biriga aylandi. Aholi sonining o'sishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda iqlim o'zgarishi sharoitida mavjud yer fondiga bosim kuchayib bormoqda. Global baholashlarga ko'ra, qishloq xo'jaligi yerlarining salmoqli qismi degradatsiyaga uchrab, ularning ishlab chiqarish salohiyati pasaymoqda. FAO hisobotlarida[1] tuproq eroziyasi, sho'rlanish va cho'llanish jarayonlari oziq-ovqat tizimlariga jiddiy xavf tug'dirayotgani ta'kidlanadi. Shuningdek, BMT tomonidan qabul qilingan[2] 2030 yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish kun tartibida yer degradatsiyasini kamaytirish va yer resurslaridan barqaror foydalanish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Shu global tendensiyalar fonida yer maydonlarini o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish masalasi yangi yerlarni egallashdan ko'ra mavjud, biroq foydalanilmayotgan yoki past samaradorlik bilan ishlatilayotgan yerlarni iqtisodiy aylanishga qaytarish orqali ichki zaxiralarni safarbar etish strategiyasini talab etmoqda. Zamonaviy agrar siyosatning asosiy yo'nalishi ham aynan mavjud resurslardan maksimal va barqaror foydalanish tamoyiliga tayanadi.

O'zbekiston sharoitida bu masala yanada dolzarb tus olmoqda. Cheklangan yer fondi, sug'oriladigan maydonlar ulushining yuqoriligi, ayrim hududlarda meliorativ holatning murakkablashuvi va suv resurslariga yuqori darajadagi bog'liqlik yer resurslaridan oqilona foydalanishni davlat siyosatining markaziy masalasiga aylantirgan. So'nggi yillarda yer maydonlarini yangidan o'zlashtirish va qishloq xo'jaligida qayta foydalanishga kiritish bo'yicha aniq tashkiliy-huquqiy mexanizmlar joriy etildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Yer maydonlarini yangidan o'zlashtirish va qishloq xo'jaligida qayta foydalanishga kiritishda davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hamda

mazkur tadbirlarni moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaror qabul qilinib [3], mazkur jarayonning moliyaviy va institutsional asoslari belgilandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [4] qarori yer resurslaridan samarali foydalanishni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik va bandlik siyosati bilan bog'lab berdi.

Yer maydonlarini o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish masalasi davlatning oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiy mustaqilligi va hududiy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot yer maydonlarini o'zlashtirish va qishloq xo'jaligida qayta foydalanishga kiritish jarayonlarini tizimli tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va agrar sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, huquqiy-me'yoriy hujjatlarni kontent tahlili hamda iqtisodiy-mantiqiy umumlashtirish usullari tashkil etadi. Xalqaro tajribani baholashda FAO hamda BMT materiallaridan foydalanildi. Milliy kontekstni o'rganishda O'zbekiston Respublikasining yer resurslariga oid normativ-huquqiy hujjatlari hamda so'nggi yillarda qabul qilingan qarorlar tahlil qilindi. Shuningdek, yer maydonlarini o'zlashtirish jarayonining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'siri o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Tadqiqot jarayonida mavjud ilmiy adabiyotlar asosida konseptual model shakllantirilib, yer resurslarini qayta foydalanishga kiritishning ustuvor yo'nalishlari aniqlashtirildi.

Natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida yer maydonlarini o'zlashtirish va qishloq xo'jaligida qayta foydalanishga kiritish jarayoni sezilarli resurs salohiyatiga ega bo'lishiga qaramay, bir qator tizimli muammolar bilan murakkablashmoqda.

O'zbekistonning umumiy yer maydoni 2025 yil 1 yanvar holatiga jami yerlari 44 892,3 ming gektarni, shundan sug'oriladigan yerlar esa 4 385,1 ming gektarni tashkil etadi. Biroq intensiv dehqonchilik asosan 4,3 mln gektar sug'oriladigan maydonlar hisobiga amalga oshiriladi [5]. Bu ko'rsatkich umumiy hududning atigi 9,8 % ga teng bo'lib, agrar ishlab chiqarishning asosiy yukini aynan shu yerlar ko'tarayotganini anglatadi. Natijada sug'oriladigan yerlarning ekologik va meliorativ holati agrar barqarorlikning hal qiluvchi omiliga aylanadi.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, sug'oriladigan yerlarning taxminan 43,5 foizi turli darajada sho'rlangan. Bu holat hosildorlikni pasaytiradi, qo'shimcha agrotexnik xarajatlarni talab qiladi hamda yerlarni qayta foydalanishga kiritish jarayonida investitsiya yukini oshiradi. Sho'rlanish darajasi yuqori bo'lgan hududlarda yerlarni ishlab chiqarish aylanishiga qaytarish uchun drenaj tizimlarini rekonstruksiya qilish va meliorativ tadbirlarni kuchaytirish zarur bo'ladi.

1-jadval

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati

Ko'rsatkich	Ulush, %	Muammo tavsifi
<i>Sho'rlanmagan yerlar</i>	56,5	Nisbatan barqaror
<i>Kam sho'rlangan</i>	30,1	Hosildorlik pasayishi boshlanadi
<i>O'rta sho'rlangan</i>	11,7	Rekultivatsiya zarur
<i>Kuchli sho'rlangan</i>	1,7	Jiddiy meliorativ tadbir talab qiladi
<i>Umumiy sho'rlangan yerlar</i>	43,5	Agrar samaradorlikka jiddiy ta'sir qiladi

Izoh: Jadval muallif tomonidan ilmiy manbalar tahlili asosidan ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, sug'oriladigan yerlarning qariyb yarmi turli darajada sho'rlanish ta'sirida bo'lib, bu agrar ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, o'rta va kuchli sho'rlangan maydonlarda meliorativ tiklash chora-tadbirlarini kuchaytirish zarur.



1-rasm. Kuchli sho'rlangan yerlarning kamayib borish dinamikasi [6]

1-rasm ma'lumotlari respublika bo'yicha kuchli sho'rlangan yer maydonlarining izchil kamayib borayotganini ko'rsatadi. 2009 yilda 141,0 ming gektarni tashkil etgan ko'rsatkich 2018 yilda 88,0 ming gektarga, 2024 yilga kelib esa 72,7 ming gektarga qisqargan. Ushbu ijobiy dinamika so'nggi yillarda amalga oshirilgan meliorativ tadbirlar va drenaj tizimlarini rekonstruksiya qilish ishlari samaradorligidan



2- rasm. Sho'rlangan yerlarning ortib boorish dinamikasi[6]

dalolat beradi. Shu bilan birga, mavjud maydonlar hajmi hali ham muhim ekologik muammo sifatida saqlanib qolmoqda.

2-rasmda sho'rlanmagan yer maydonlarining barqaror o'sish tendensiyasi aks etgan. 2009 yilda 2 167 ming gektarni tashkil etgan sho'rlanmagan maydonlar 2018 yilda 2 348 ming gektarga, 2024 yilga kelib esa 2 443 ming gektarga yetgan. Mazkur o'sish

yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan davlat siyosati va kompleks tiklash chora-tadbirlarining ijobiy natijalarini ifodalaydi. Ushbu tendensiya agrar ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Suv resurslariga yuqori darajadagi bog'liqlik ham yer maydonlarini o'zlashtirish jarayonini cheklovchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Sug'oriladigan dehqonchilik ustuvor bo'lgan sharoitda suv tanqisligi va iqlim o'zgarishi xavfi yerlarning barqarorligini ta'minlashni murakkablashtiradi. Suv ta'minoti va yer boshqaruvi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik integratsiyalashgan yondashuvni talab etadi.

Shuningdek, yer degradatsiyasi ham muhim muammolardan biridir. Ayrim xalqaro ma'lumotlarga ko'ra[1], mamlakat hududining 45–50 foizigacha qismi turli darajada degradatsiyaga uchragan. Yer unumdorligining pasayishi, gumus miqdorining kamayishi va eroziya jarayonlari uzoq muddatli agrar samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat yangi yerlarni o'zlashtirishdan ko'ra mavjud yerlarning sifatini tiklash ustuvor vazifa ekanini ko'rsatadi.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'qqizta banddan iborat bo'lib, birinchi band aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Bu global ahamiyatga ega muhim vazifadir.

Iqtisodiy jihatdan qishloq xo'jaligi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 24,8 foizini shakllantirib, mazkur sohada Respublika bo'yicha band bo'lgan aholining qariyb 24,9 %ni tashkil etgan holda,[7] aholining salmoqli qismini ish bilan ta'minlaydi. Bu esa yer resurslaridan foydalanish samaradorligi nafaqat agrar ishlab chiqarish, balki ijtimoiy

barqarorlik uchun ham muhim ekanini anglatadi. Shu bilan birga, foydalanilmayotgan yoki past samaradorlik bilan ishlatilayotgan yer maydonlarining mavjudligi ichki iqtisodiy zaxiralarning to'liq ishga solinmayotganidan dalolat beradi.

Normativ-huquqiy jihatdan yer maydonlarini yangidan o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish mexanizmlari belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda monitoring, moliyalashtirish samaradorligi va hududiy muvofiqlashtirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu esa yer resurslarini boshqarishda tizimli, ma'lumotlarga asoslangan va institutsional jihatdan mustahkam yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yer maydonlarini o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish salohiyati mavjud, biroq ekologik degradatsiya, sho'rlanish, suv ta'minoti va boshqaruv mexanizmlaridagi kamchiliklar mazkur jarayon samaradorligini cheklab turibdi.

Muhokama. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yer maydonlarini o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish masalasi resurs yetishmovchiligi emas, balki resurslardan foydalanish samaradorligi bilan bog'liq tizimli muammolar bilan belgilanadi. Yer fondining sezilarli qismi qishloq xo'jaligiga ajratilgan bo'lsa-da, intensiv ishlab chiqarish asosan cheklangan sug'oriladigan maydonlar hisobiga amalga oshirilmoqda. Bu esa agrar sektorni ekologik va iqlimiy xavflarga yuqori darajada sezgir qilib qo'yadi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, yer degradatsiyasini kamaytirish hamda yer maydonlarini qayta foydalanishga kiritish jarayonining samaradorligi bir qator fundamental omillarga bog'liq.

Yer degradatsiyasini kamaytirish hamda yer maydonlarini qayta foydalanishga kiritishning jahon tajribasi

Institutsional barqarorlik va boshqaruv tizimining izchilligi-yer resurslarini muhofaza qilish va tiklash uzoq muddatli siyosiy iroda hamda aniq normativ-huquqiy mexanizmlarni talab etadi.

Ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv modeli -yer resurslarining holati, sifati va foydalanish darajasi bo'yicha ishonchli statistik va geoma'lumotlar bazasiga tayanish, qaror qabul qilish jarayonining aniqligi va samaradorligini oshiradi.

Resurs tejoyvchi va ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish - yerning tabiiy salohiyatini saqlash hamda ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

3- rasm. Yer degradatsiyasini kamaytirish hamda yer maydonlarini qayta foydalanishga kiritishning jahon tajribasi

Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlar ham ushbu yo'nalishning nazariy asoslarini mustahkamlaydi. Xususan, FAO tomonidan ilgari surilgan Barqaror yer boshqaruvi (Sustainable Land Management) konsepsiyasi yer resurslaridan foydalanishda iqtisodiy samaradorlik, ekologik muvozanat va ijtimoiy manfaatlar uyg'unligini ta'minlashni ko'zda tutadi. Mazkur yondashuv yerlarning ishlab chiqarish funksiyasini saqlagan holda ularning ekologik holatini tiklash va kelgusi avlodlar uchun resurs salohiyatini asrash tamoyiliga asoslanadi.

Shuningdek, BMTning Cho'llanishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyasi tomonidan ilgari surilgan "Land Degradation Neutrality" tamoyili ya'ni yer degradatsiyasi jarayonini muvozanatlashtirish g'oyasiga tayanadi. Ushbu tamoyilga ko'ra, degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash va rekultivatsiya qilish orqali umumiy yer sifati balansini saqlash hamda uzoq muddatli ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsad qilinadi. O'zbekiston sharoitida yer maydonlarini o'zlashtirish siyosatini kengaytirishdan ko'ra, avvalo mavjud yerlarning sifat ko'rsatkichlarini tiklash ustuvor vazifa bo'lishi lozim. Sug'oriladigan

yerlarning yarmidan ortig'i sho'rlangan sharoitda yangi yerlarni o'zlashtirish iqtisodiy jihatdan yuqori xarajatli bo'lishi mumkin. Shu bois meliorativ tizimlarni modernizatsiya qilish, drenaj infratuzilmasini yangilash va suv tejoyvchi texnologiyalarni keng joriy etish strategik ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, yerlarni qayta foydalanishga kiritish jarayonida ma'lumotlar integratsiyasi muhim o'rin tutadi. Zamonaviy agrar siyosatda raqamli monitoring, geoma'lumotlar bazasi va masofadan zondlash texnologiyalaridan foydalanish samaradorlikni oshirishning asosiy vositalaridan biri sifatida qaralmoqda. Yerlarning real foydalanish holatini aniqlash, degradatsiya darajasini baholash va investitsiya ustuvorliklarini belgilash ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishni talab etadi.

Ijtimoiy jihatdan, yoshlarni yer ajratish orqali agrar faoliyatga jalb etish siyosati bandlik va daromadlarni oshirishda muhim omil bo'lishi mumkin. Biroq yer ajratishning o'zi yetarli emas; agrotexnik bilim, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, infratuzilma va bozor integratsiyasi bilan birgalikda amalga oshirilgan taqdirdagina samarali natija beradi. Aks holda yer resurslari yetarli iqtisodiy qaytim bermasligi mumkin.

Strategik nuqtai nazardan qaraganda, yer maydonlarini o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish siyosati uch yo'nalishda takomillashtirilishi zarur: birinchidan, ekologik barqarorlikni ustuvor qo'ygan holda yer sifatini tiklash; ikkinchidan, institutsional va moliyaviy mexanizmlarni kuchaytirish; uchinchidan, raqamlashtirish va innovatsion boshqaruv usullarini keng joriy etish. Faqat shu yondashuv orqali yer resurslari iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli va barqaror manbaiga aylanishi mumkin.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston uchun yer maydonlarini o'zlashtirish masalasi kengaytirish emas, balki optimallashtirish va sifat jihatdan yangilash strategiyasini talab etadi. Resurslardan oqilona foydalanish, ilmiy asoslangan boshqaruv va ekologik muvozanatni ta'minlash agrar siyosatning asosiy tayanchiga aylanishi lozim.

Xulosa va ilmiy-amaliy tavsiyalar.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida yer maydonlarini o'zlashtirish va qishloq xo'jaligida qayta foydalanishga kiritish masalasi resurs yetishmovchiligi bilan emas, balki mavjud yer resurslaridan foydalanish samaradorligi bilan bog'liq tizimli muammolar bilan tavsiflanadi. Sug'oriladigan yerlarning ekologik holati, degradatsiya jarayonlari, suv resurslariga yuqori bog'liqlik hamda boshqaruv mexanizmlarining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi mazkur jarayonning samaradorligini cheklab turibdi.

Natijalar shuni tasdiqlaydiki, yangi yerlarni keng ko'lamda o'zlashtirishdan ko'ra, mavjud yerlarning sifat ko'rsatkichlarini tiklash va ularni iqtisodiy aylanishga qaytarish ustuvor strategiya bo'lishi lozim. Yer resurslarini boshqarish jarayonida ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy manfaatlar uyg'unligini ta'minlash zamonaviy agrar siyosatning asosiy tamoyiliga aylanishi zarur.

Shu munosabat bilan quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchidan, yerlarning meliorativ va ekologik holatini yaxshilashga qaratilgan kompleks milliy dasturlarni kuchaytirish hamda degradatsiyaga uchragan yerlarni

rekultivatsiya qilishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, yer resurslarini boshqarishda ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tizimini shakllantirish, raqamli monitoring va geoma'lumotlar bazasini integratsiyalash zarur.

Uchinchidan, suv tejoychi va resurs tejankor texnologiyalarni keng joriy etish orqali sug'oriladigan yerlarning barqarorligini ta'minlash lozim.

To'rtinchidan, yer ajratish siyosatini infratuzilma, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va bilim transferi mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish zarur.

Beshinchidan, yer resurslari boshqaruvida institutsional muvofiqlashtirishni kuchaytirish va normativ-huquqiy bazani amaliy samaradorlik nuqtai nazaridan takomillashtirish talab etiladi.

Umuman olganda, yer maydonlarini o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish siyosati kengaytirish emas, balki optimallashtirish, tiklash va barqaror boshqaruv tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirilgan taqdirdagina uzoq muddatli iqtisodiy va ekologik samaradorlikni ta'minlay oladi. Yer resurslari mamlakatning strategik kapitali sifatida qaralishi va ular bilan bog'liq qarorlar kompleks, ilmiy asoslangan hamda institutsional jihatdan mustahkam mexanizmlar orqali amalga oshirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Food and Agriculture Organization of the United Nations. (2021). The State of the World's Land and Water Resources for Food and Agriculture (SOLAW 2021). Rome: FAO. 308 p. <https://doi.org/10.4060/cb7654en>
2. United Nations. (2015). Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: United Nations.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2024). Yer maydonlarini yangidan o'zlashtirish va qishloq xo'jaligida qayta foydalanishga kiritishda davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hamda mazkur tadbirlarni moliyalashtirish

- tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. Lex.uz.
 5. O'zbekiston Respublikasi Yer Fondi. 2025.
 6. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi statistik ma'lumotlari. <https://gov.uz/uz/suvchi/pages/statistik-ma-lumotlar>
 7. Erdonov M.E. O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlashda qishloq xo'jaligining asosiy vazifalari. Journal of marketing, business and management. Volume3, Issue 12(may) -47b.